

INTELLEKTUAL MULK: HUQUQIY ASOSLAR VA HIMOYA MEXANIZMLARI

Otamirzayeva Mushtariy Umidjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs B potok 3-guruh talabasi.

mushtariyotamirzayeva07@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14578353>

Annotatsiya. Ushbu maqolada intellektual mulk tushunchasi, unga ega bo'lish masalalari, xususan, intellektual mulk huquqi sohasidagi huquqiy asoslar va himoya mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada intellektual mulk huquqi mavjud milliy va xalqaro qonunchiliklar orqali yoritilib, mualliflik huquqi, patentlar, tijorat siri kabi huquqlarni himoya qilishning dolzarb masalalariga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, maqolada raqamli hayotda intellektual mulkni himoya qilish usullari va muammolariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: intellektual mulk, mualliflik huquqi, patent, tijorat siri, konvensiya.

INTELLECTUAL PROPERTY: LEGAL BASIS AND PROTECTION MECHANISMS

Abstract. This article analyzes the concept of intellectual property, the issues of its ownership, in particular, the legal foundations and protection mechanisms in the field of intellectual property law. The article covers the intellectual property right through the existing national and international legislation, and touches on the current issues of protection of rights such as copyright, patents, and trade secrets. Also, the article focuses on methods and problems of intellectual property protection in digital life.

Key words: intellectual property, copyright, patent, commercial secret, convention.

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ СОБСТВЕННОСТЬ: ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И МЕХАНИЗМЫ ЗАЩИТЫ

Аннотация. В данной статье анализируется понятие интеллектуальной собственности, вопросы владения ею, в частности правовые основы и механизмы защиты в сфере права интеллектуальной собственности. В статье рассматривается право интеллектуальной собственности через действующее национальное и международное законодательство, а также затрагиваются актуальные вопросы защиты таких прав, как авторское право, патенты и коммерческая тайна. Также статья посвящена методам и проблемам защиты интеллектуальной собственности в цифровой жизни.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, авторское право, патент, коммерческая тайна, конвенция.

KIRISH

Inson jamiyat a'zosi hisoblanar ekan, hayoti davomida turli huquqlardan foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolarning ijod erkinligining ham kafolatini belgilab bergan. Konstitutsiyaning 33-moddasida har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega, deb mustahkamlab qo'yilgan bo'lsa, 53-moddasida fuqarolarga bevosita ilmiy, texnikaviy yutuqlardan foydalanish erkinligi kafolatlangan¹. Bundan kelib chiqadiki,

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti - <https://lex.uz/docs/-6445145>

intellektual mulk huquqi zamonaviy hayotdagi eng muhim huquqlardan biri hisoblanib, mamlakatlarning innovatsion salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, jahonda intellektual mulk huquqini samarali himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish jahon hamjamiyatining dolzarb vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.

Endi intellektual mulk aslida nima ekanligiga to'xtalib o'tsak. Xalqaro konvensiyalar va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, aqliy va ijodiy faoliyat natijalariga nisbatan alohida shaxsiy va mulkiy huquqlar majmuasi intellektual mulk deb nomlanadi². Demak, intellektual mulk huquqi shaxsning aqliy va ijodiy faoliyati natijasida yuzaga kelgan shaxsiy va mulkiy huquqlarni himoya qiluvchi huquq sohasi hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi ham intellektual mulkning turlari haqida ma'lumot berish, shuningdek, ularni himoya qilish mexanizmlarini tahlil etishdan iborat.

ASOSIY QISM:

1. Intellektual mulk turlari.

Intellektual mulk, o'z navbatida, 3 ta turga bo'linadi. Bular:

- patent;
- mualliflik huquqi;
- tijorat siri³.

Bularning har biriga alohida to'xtalib chiqadigan bo'lsak, patent – bu ixtirochiga bir qator huquqlar, jumladan, ixtirosidan foydalanish, uni sotish yoki boshqacha yo'llar orqali foyda olish imkonini beruvchi hujjat hisoblanadi. Patent olgan shaxs o'z ixtirosini har qanday holatda ham boshqa shaxslar o'zboshimchalik bilan foydalanmasligi uchun huquqiy himoya qilish huquqiga ega bo'ladi.

Mualliflik huquqi esa fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish va ulardan foydalanishda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladigan fuqarolik huquqi me'yorlari majmuasi hisoblanadi⁴. Bu huquqqa ega bo'lgan shaxs o'z asarlarini boshqarish, nashr qilish, tarqatish va tijorat maqsadlarida foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu huquq, odatda, mamlakat qonunchiligiga ko'ra muallifning hayoti davomida va u vafot etgandan so'ng 50-70 yil davomida amal qiladi. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, bu miqdor 70 yilni tashkil etadi.

Tijorat siriga keladigan bo'lsak, u korxona yoki tashkilotning o'zi ishlab chiqqan, boshqa tashkilotlarning bilishini xohlamaydigan, shuningdek, bozor maydonida halol raqobatni ta'minlaydigan intellektual mulk huquqi hisoblanadi. Bu huquqqa oddiy misol qilib Coca-cola ichimligini keltirishimiz mumkin. Ya'ni bu ichimlik retsepti faqatgina uni ishlab chiqqanlarga ayon va bu retsept boshqa tashkilotlar xabardor bo'lishini oldini olish maqsadida qonun bilan himoya qilinadi.

2. Huquqiy asoslar.

Intellektual mulkni qonun bilan himoya qilish uchun xalqaro miqyosda ham, milliy qonunchilikda ham bir qator qonunlar qabul qilingan. Bu kabi qonunlar qabul qilinishiga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asos bo'ldi. Deklaratsiyaning 27-moddasida shunday

² Kostetskiy V.A. Davlat va huquq asoslari. – Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Service, 2017. – 85 b.

³ <https://www.investopedia.com/terms/i/intellectualproperty.asp> - What is intellectual property and what are some types.

⁴ Kostetskiy V.A. Davlat va huquq asoslari. – Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Service, 2017. – 86 b.

deyilgan: “Har bir inson o‘zi muallifi bo‘lgan ilmiy, adabiy yoki badiiy asarlardan kelib chiqadigan ma’naviy huquqlari va moddiy manfaatini himoya qilish huquqiga ega”⁵. Dastlab intellektual mulk tushunchasi 1967-yilda Jahon intellektual mulk taashkilotini ta’ sis etgan Konvensiyaga binoan joriy qilindi. O‘zbekiston ham mazkur tashkilot a’zosi hisoblanadi.

Ushbu tashkilotga a’zo bo‘lish O‘zbekiston qonunchiligida ham bir qator hujjatlar qabul qilinishiga asos bo‘ldi. Xususan, 2006-yil 23-martda “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi fan, adabiyot va san’at asarlarini, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuvlardan foydalanish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat⁶.

Bundan tashqari, mualliflik huquqi va ixtirochilik huquqiga oid masalalarning yechimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-fevraldagi “Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4168-son qarorida belgilab berilgan. Ushbu qarorda milliy qonunchilikka intellektual mulk sohasida umume’tirof etilgan xalqaro standartlarni, shu jumladan Xalqaro savdo tashkilotining Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari bo‘yicha bitimi talablarini inobatga olgan holda implementatsiya qilish, shuningdek, intellektual mulk huquqi sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va ma’muriy jazo qo‘llash huquqini adliya organlariga taqdim etgan holda, intellektual mulk obyektlaridan noqonuniy foydalanganlik uchun ma’muriy javobgarlikni kuchaytirish alohida belgilab qo‘yilgan⁷.

3. Himoya mexanizmlari.

Har bir jabhada huquqbuzarliklar sodir bo‘lib turganidek, ushbu huquq sohasida ham bir qator huquqbuzarliklar sodir etilib turiladi. O‘zlarining ushbu huquq sohasidagi huquqlari poymol bo‘lgan deb hisoblovchi fuqarolar turli xil usullar yordamida o‘z huquqlarini tiklashlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasidagi munosabatlar xalqaro huquq me’yorlariga asoslangan holda hamda quyidagi hujjatlardan kelib chiqib tartibga solinadi:

- Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Bern Konvensiyasi bitimlari (24.07.1971-yil);
- Mualliflik huquqi to‘g‘risida Butunjahon konvensiyasi bitimlari (1952);
- MDH doirasida tuzilgan mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish haqidagi bitimlar (10.02.1995-yil).

Ushbu qonunchilik hujjatlariga asosan fuqarolar intellektual mulk sohasidagi huquqlarini himoya qilishi mumkin va, albatta, davlat ham ularning huquqlari ta’minlanishini kafolatlaydi.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, intellektual mulk huquqlarining buzilishi holatlari faqat rivojlanayotgan davlatlarning muammosi emas. Bunday huquqbuzarliklar rivojlangan davlatlarda ham, rivojlanayotgan davlatlarda ham uchraydi. Shuni hisobga olgan holda, davlatlar bu huquqni ta’minlash uchun yanada kuchliroq himoya mexanizmlari ishlab chiqishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

⁵ Xoliqov F.U. Intellektual mulkka qarshi jonoyatlarni kvalifikatsiya qilish. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024. – 6 b.

⁶ O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti – <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti – <https://lex.uz/docs/-4195426>

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, intellektual mulk huquqi sohasi juda keng qamrovli sohalardan biri bo'lib, bu huquqni himoya qilish nafaqat ixtirochilarning o'zlari uchun, balki davlatning rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda xalqaro miqyosda qabul qilingan xalqaro shartnomalar va milliy qonunchiliklar orqali ushbu huquqni himoya qilishda katta o'rin egallamoqda. Shu bilan birga, ushbu huquq sohasida uchrab turadigan huquqbuzarliklar, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirishdagi qiyinchiliklar davlatlar tomonidan samarali chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti - <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Kostetskiy V.A. Davlat va huquq asoslari. – Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Service, 2017. – 85 b.
3. <https://www.investopedia.com/terms/i/intellectualproperty.asp> - What is intellectual property and what are some types.
4. Xoliqov F.U. Intellektual mulkka qarshi jonoyatlarni kvalifikatsiya qilish. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – 6 b.
5. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti – <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti – <https://lex.uz/docs/-4195426>